ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PRESEDENT BIRLIKLAR VA TURG'UN BIRIKMALARNING BADIIY MATNDAGI POETIK AHAMIYATI (SHUHRAT ORIF IJODI MISOLIDA)

Zaynutdinova Gulnoza Anvarjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Badiiy matnning ta'sirchanligi, ma'no ko'lamdorligini oshirishda, unda aks etgan poetik maqsadni yanada oydinlashtirishda presedent birliklarning alohida o'rni bor. Presedent atamasi (lotincha praecedens - «avvalgi») o'tmishda sodir bo'lgan voqea yoki hodisa shunga o'xshash keyingi holatlar uchun misol yoki asos bo'lib xizmat qilishini anglatadi.

Y.N.Karaulov presedent birliklarning ishlash mexanizmini faktik materiallar asosida izohlar ekan, shunday xulosaga keladi: «So'zlovchi o'z nutqi (diskurs, matn)ni dalillash uchun unga mashhur biror asar yoki voqelikka oid ibora (unga ishora) kiritadi va bu kiritish natijasida ongda paydo bo'lgan refleks yoyi (tinglovchining shartli refleks yoyi)gato'qnashish holati yuz beradi: ishora (iqtibos yoki ism) - va endi ijtimoiy-psixologik xarakterdagi o'sha hodisa yoki ijtimoiy-siyosiy, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan voqelik tinglovchi ongida jonlanadi, faollashadi, ya'ni presedent birlik harakatga tushadi.»[1] Presedent matnlarni bilish ma'lum bir davr va uning madaniyatiga mansublik ko'rsatkichi bo'lsa, aksincha, ulardan bexabarlik tegishli madaniyatga xos emaslikdan dalolat berishi mumkin.

Tadqiqotlarda jamiyatda presedent matnlarning mavjudligi va aylanishining uch xil usuli tavsiflangan:

- tabiiy usul, bunda matn, ta'bir joiz bo'lsa, asl shaklida to'g'ridan-to'g'ri idrok etish, tushunish, tajriba, aks ettirish obyektisifatida o'quvchi yoki tinglovchiga yetib boradi.

- ikkinchi darajali usul asl matnni idrok etish uchun mo'ljallangan boshqa san'at turiga aylantirish yoki adabiy - tanqidiy (san'atshunoslik) maqolalar, sharhlar, tadqiqotlarda taqdim etilgan ikkinchi darajali fikrlashni o'z ichiga oladi.

- uchinchisi semiotik usul sifatida tavsiflanib, asl matnga murojaat muloqot jarayonida butun matn yoki uning nutqiy vaziyatga yoki kattaroq hayotiy voqeagamos keladigan alohida qismi ishora, havola, belgi orqali beriladi. Bunday holda, butun matn yoki uning muhim qismi belgilashning yaxlit birligi vazifasini bajaradi[2].

Rus tilshunosligida presedentlik muammosi lingvokulturologik va psixolingvistik aspektlarda o'rganilgan. Lingvokulturologik aspektda V.N.Teliya (1986), N.D.Arutyunova (1988), V.G.Kostomarov, N.D.Burvikova (1994), Y.YE.Proxorov(1996), G.G.Slishkin (2000), N.F.Alefirenko (2010), V.A.Voropayev (2009) lar presedent birliklarni tasniflash muammolari, V.A. Voropayev (2012), V.M.Shaklein (2012), YE.A.Fleysher (2014), M.L.Kovshova (2019)lar presedent nomlar masalasini; Y.A.Sorokin(1997), N.S.Panarina(2017), N.V.Bubnova(2019) va boshqalar[3] esa psixolingvistik aspektda tadqiq etganlar.

D.Xudoyberganova «Matnning antropotsentrik tadqiqi» monografiyasida o'zbek tilshunosligida birinchi marta presedent birliklarni tadqiq qiladi va shu yo'nalishdagi qator izlanishlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.[4] D.Xudoyberganova presedent birliklarning presedent nom, presedent jumla, presedent matn turlari mavjudligi va ular motiviga ko'ra badiiy va diniy matnlar, mashhur va qiziq voqealar, afsona, rivoyat, ertak, latifa, kinofilmlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, Layli, Majnun, Xizr, Nasriddin afandi, Shum bola, Qorabotir, Tohir-Zuhra, Sotti kabi.»[5]

[1] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 217

[2] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 217

[3] Флейшер Е.А. Основы прецедентности имени собственного: дисс.канд.филол.наук. – Санкт-Петербург, 2014.

[4] Саидова М., Қўзиев У. Лингвокультурология (Услубий қўлланма). – Наманган 2017; Сайдалиева М. Ўзбек прецедент номларининг қўлланишидаги айрим жиҳатлар //IV-EUROASIA International Congress on Multidisciplinary Studies. Shymkent, Kazakhstan, August 25-28, 2019; Пардаева Н.Э. Замонавий тилшуносликнинг лингвокультурология соҳасида прецедент бирликлар тадқиқи // «Экономика и социум» №1(80) 2021// https://www.iupr.ru; Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, № 3 (38), 78-92.

[5] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 90-91.

Ma’lumki, presedent matn va presedent vaziyat kengroq voqelik yoki tushunchalarni nazarda tutadi va har doim ham nutqda to‘liq ishlatib bo‘lmaydi. Shuning uchun muloqotda presedent matn yoki presedent vaziyatning ramzi sifatida unga ishora bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zni kiritadilar. Shu bilan ko‘zda tutilgan pretsedent vaziyat aktuallashadi.

Presedent matnlarning qay darajada mashhur ekanligi ularni qayta talqin qilish xususiyatini ham belgilaydi: qoida tariqasida, ular dastlab paydo bo‘lgan so‘z san’ati chegarasidan chiqib, boshqa san’at turlarida (dramatik ijro, she’r, opera, balet, rassomlik, haykaltaroshlik) mujassamlashadi, shu bilan so‘zning keng ma’nosida madaniyat faktiga aylanadi, yangi-yangi avlodlar tomonidan ham talqin qilinaveradi.[1]

*Men – **Mansur**ning ko‘zidagi mung,*
*Men – **Iso**ga qoqilgan xochman.*
Nahot meni tanimayapsiz,
Men o‘shaman, o‘shaman... qochmang.
(Sh.Orif. –B.3)[2]

Mashhur mutasavvuf Husayn Mansur Halloj «Anal haq» (men – Haq, men –Xudo) degani uchun Bag‘dodda xalifa tomonidan dorga osildi. Mansur Halloj nomi tilga olinganda deyarli doimo uning «Anal haq» degan mashhur gapi va bu gapning hukmi haqidagi tortishuvlar ham eslab o‘tiladi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bu bahsli munozara haqidagi savolga qisqa va lo‘nda javob beradi: Halloj haqida ixtilof bor. Uning tarafdorlari maqtaydi, unga muxolif bo‘lganlar tanqid qiladi.[3]

Ahmad Yassaviy mutasavvuf shoir sifatida Mansur hallojning Haq diydoriga intilgan chin oshiq bo‘lganligiga ishora qiladi:

Ayo oshiq, dardu holat paydo qilg‘il,
Mansur sifat «Anal-Haq» deb g‘avg‘o qilg‘il,
Dunyo qo‘yub, oxiratni savdo qilg‘il,
Savdo qilg‘an Haq diydorin ko‘rar bo‘lg‘ay.

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglash mumkinki, Mansur Halloj yashab o‘tgandan shuncha davr o‘tib, XXI asr farzandi Shuhrat Orif «Men – Mansurning ko‘zidagi mung», deya yonib ayta olishi katta jasorat, avliyo bobomiz bilan bog‘liq haqiqatni ardoqlash, uning qalbidagi Yaratganga bo‘lgan cheksiz muhabbat va sadoqat hissiga bo‘lgan yuksak ehtirom, ixlosning hosilasi sifatida baholanadi.

Shoir yana bir she’rida diniy falsafiy presedentlar biri Iso nomini ifoda etadi. Uni shunchaki qo‘llamay, shoirona telbalik va hayrat bilan «Men – Isoga qoqilgan xochman», deya bong uradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, diniy-mifologik matnlar presedent matnlarning barcha xususiyatlariga ega: 1) umumma’lumlik va majmuaviylik,ya’ni universal-presedent xarakterda bo‘lib, turli lingvomadaniyatlar vakillariga ma’lum va tanish; 2) yuqori darajadagi ifoda rekurrentlik (takrorlanuvchilik), ya’ni diniy-mifologik matnlar, syujetlar, motivlar, obrazlar matnning turli tiplari (badiiy, gazeta, publitsistik)da faol qo‘llangani kabi kundalik turmushda ham ko‘p ishlatiladi; 3) reinterpretatsiyalanuvchanlik, ya’ni ushbu matnlar san’atning turli ko‘rinishlari (tasviriy san’at, haykaltaroshlik, balet va boshq.)da aks ettiriladi; 4) aksiologik ahamiyatga egalik, zero, ular turli lingvomadaniyatlarning xulq-atvor meyorlarini boshqaruvchi madaniy dominant sifatida namoyon bo‘ladi; 5) ramziylik va obrazlilik, timsolga aylangan muayyan obrazlar bilan assotsiatsiyalana olish imkoniyati; 6) kognitiv ahamiyati, ya’ni turli tipdagi bilim tuzilmalarini inson ongida faollashtirish[4].

Badiiy matnda Iso presedentini qo‘llay olish shoirdan katta bilim, diniy falsafiy, ilmiy mushohada va albatta, go‘zal tafakkur talab qiladi. Bu borada Sh.Orifga badiiy mahorati va kuchli iqtidori, so‘zga oshiqligi qo‘l keladi. Shu o‘rinda mazkur presedent va u bilan bog‘liq vaziyat haqida izoh berib o‘tsak.

«Iso alayhissalomning tug‘ilishi qator samoviy hodisalar bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelganligi tufayli uni Masih va yahudiylar mamlakatining yangi shohi deb hisoblashgan.

Iso alayhissalom o‘z ta’limotini ko‘proq masallar orqali bayon etgan. Uning chuqur, ma’nodor va o‘ta mukammal tarzda ifodalangan fikrlari, har bir iborasi, so‘zlari hammani hayratga solib, maftun etgan. Barcha buyuk zotlar kabi Iso alayhissalomning ham g‘animlari bo‘lgan. Ana shu g‘animlari orasidan o‘rin olgan yaqin shogirdining sotqinligi tufayli Iso xalqni g‘alayonga da’vat qilganlikda ayblangan»[5].

Shoir bejizga o‘zini Isoga qoqilgan xochga o‘xshatmaydi. Bir qarashda bu o‘zni ayblash va gunohkor sanashday ko‘rinsa-da, badiiy obraz salmog‘i nuqtayi nazaridan bu ko‘proq sharafga intilish, ya’ni Allohning payg‘ambari mixlangan bo‘lsa-da, pok qolgan o‘sha xochga buyuk nazar bilan qarashga o‘xshaydi.

Umuman olganda, shoir ijodida bu kabi diniy-falsafiy presedent birliklarning qo‘llanilishi ijodkorning baland ruhi, uyg‘oq tafakkuridan nishona beradi.

Sh.Orif she’rlarining aksariyat o‘rinlarida Odam presedenti ko‘p qo‘llanilgan.

[1] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – С. 217.

[2] Ориф Ш. Мен асли одаммас ёр эдим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. – 160 б. Мисоллар ушбу манбадан олинган.

[3] https://savollar.islom.uz/s/749

[4] Ганиев С. Минҳожиддин Мирзо шеърияти лингвопоэтикаси: Филол фанл.б-ча фалс.дри. дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 59 .

[5] https://ziyouz.uz/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar-hikmati/5-30/

*Ming yilki, **Odam**ni **Odam**dek izlab,*
Telbalar (Tangridan bir xat) keladi
yoki
*Men emas, quvg‘indi **Odam** g‘alati...*
(Sh.Orif. – B.17)

Manbalardan ma’lumki, «Birinchi inson va birinchi payg‘ambar bo‘lmish otamiz Odam alayhissalomning yaratilishlari qissasi «Baqara» surasida quyidagicha bayon etiladi: «Esla, vaqtiki Robbing farishtalarga: «Albatta, Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman», – dedi. (Ular:) «Unda buzg‘unchilik qiladigan, qon to‘kadigan kimsani qilmoqchimisan? Holbuki, biz Seni hamding ila poklab yod etib va Seni ulug‘lab turibmiz», – dedilar. (U Zot:) «Albatta, Men siz bilmaydigan narsalarni bilaman», dedi (30-oyat). Ushbu oyatdan Alloh taolo Odamning O‘zining yer yuzidagi o‘rinbosari – xalifasi bo‘lishini iroda etganligi ma’lum bo‘lyapti. Demak, insonga ulkan ishonch bildirilgan, u ulug‘ Allohning xalifasi bo‘lishdek oliy maqomga loyiq ko‘rilgan. Bunday marhamatning o‘ziga yarasha buyuk mas’uliyati ham bor. Inson shuni anglagan holda, uni xalifa qilib qo‘ygan Zotning topshiriqlarini bajarmog‘i, yaratgan Zot munosib ko‘rgan oliy maqomga dog‘ tushirmaslikka harakat qilmog‘i kerak. Qur’onning ta’kidlashicha, insonni yo‘qdan bor qilgan Zot uni tuproqdan yaratgan Alloh taolodir. Hozirgi zamon ilmi ham buni tasdiqlamoqda»[1].

Alloh taolo tuproqdan inson yaratdi. «Va U zot Odamga ismlarning barchasini o‘rgatdi, so‘ngra ularni farishtalarga ro‘baro‘ qildi. Keyin: «Agar rostgo‘ylardan bo‘lsangiz, anavilarning ismlarini menga aytib bering», dedi». (Baqara surasi, 31-oyat) Alloh taolo odamni O‘zining yer yuzidagi xalifasi qilayotgan paytda unga ulug‘ bir sirni berganligi ushbu oyatdan bilinib turibdi. U ham bo‘lsa, ismlarning barchasini o‘rgatishidir. Ya’ni, inson o‘zini o‘rab turgan barcha ashyolarning belgisi sifatida ismni, ma’noni ishlatadi. His qilinadigan, jismga ega bo‘lgan narsalarni fahmlash uchun nutqiy ramzlarni ishlatish qudrati inson hayotida eng ulug‘ qudratlardan biri hisoblanadi».[2]

Qayd etilganidek, Alloh taolo Odamni yaratdi, unga ulug‘ martaba berdi, jannatni doxil qildi, mal’un shayton Jannatda Odam va Havvoni vasvavaga soldi, ular vasvasaga uchdilar, biroq darhol tavba qildilar. Shu tariqa Odam Havvo va shayton bilan birgalikda Jannatdan quvildi. Demakki, Odam (a.c.) ning ko‘plab adabiy manbalarda «quvg‘inlik» sifati berilishida shunga ishora bor. Yuqoridagi kabi diniy manbalardan olingan ma’lumotlar bular haqida batafsil ma’lumot beradi.

Sh.Orif ham o‘zining diniy-faslasafiy tafakkuri, chuqur mushohadasiga suyanib, Odam presedentini juda ko‘p o‘rinlarda samarali qo‘llay oladi. Bu esa o‘z navbatida shoir ijodining badiiy obrazliligi, ta’sirchanligini ko‘rsatsa, shuningdek, shoir poetikasining o‘ziga xos zalvorini ham belgilaydi.

Badiiy matnning go‘zalligi va jozibadorligini ta’minlovchi, fikrni ixcham, lo‘nda va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiluvchi vositalardan biri bu iboralardir. «Adib yoki shoirning fikrini lo‘nda va ixcham ifodalash, voqea va hodisalarni quyma tasvirlashda turg‘un birikmalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki ular xalq donishmandligining o‘ziga xos ifodalari bo‘lib, etnik guruhlarning turmush tarzi, dunyoqarashini o‘zida jamlagan va uzoq yillar davomida shakllangan nutqda tayyor holda qo‘llanadigan til boyligidir» [3]. Eng muhimi, tildagi maqol, matal, turg‘un o‘xshatish va iboralardan har bir ijodkor individual foydalanadi, ularning yangi-yangi ma’no qirralarini, o‘ziga xos ifoga intiladi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganish va tizimlashtirishda H.Berdiyorov, S.Akobirov, B.Xo‘jaxonov, E.Umarov, V.X.Qodirov, A.M.Bushuy, Sh.Rahmatullayev, M.I.Umarxo‘jayev, B.Yo‘ldoshev, D.Abdullayev kabi olimlar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar. B.Yo‘ldoshev «Frazeologik uslubiyat asoslari» o‘quv qo‘llanmasida jahon tilshunosligi, jumladan, o‘zbek tilshunosligidagi frazeologiya sohasining nazariy va amaliy jihatlarini batafsil yoritishga harakat qilgan.[4]

Aytish kerakki, yozuvchi va shoirlarning badiiy mahorati, asarlarining poetikasi o‘rganilgan ishlarda frazeologik birliklarning stilistik jihatlariga ham e’tibor qaratilishi tabiiy. O‘zbek tilshunosligida[5] hozirgi kunga qadar ko‘plab o‘zbek shoir va yozuvchilarining asarlarida qo‘llanilgan frazemalar ma’lum darajada tadqiqot obyekti bo‘lgan. Biroq, shu kunga qadar zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakili Shuhrat Orif ijodida turg‘un birikmalarning o‘rni o‘rganilmagan.

«Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir.»[6] Ma’lumki, ibora «yaxlitligicha ustama ko‘chma

[1] https://siyrat.uz/maqola/9494
[2] https://islom.uz/maqola/4509

[3] Ганиев С. Минҳожиддин Мирзо шеърияти лингвопоэтикаси. Филол.фанл. бча фалсафа дри дисс. – Тошкент, 2022. – Б.65.
[4] Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд.: СамДУ, 1998.
[5] Йўлдошев Б. Мустақиллик йилларида ўзбек фразеологияси: эришилган ютуқлар ва навбатдаги вазифалар// Хорижий филология. 2017. – №1. –Б.11.
[6] Йўлдошев Б. Ўша жойда: – Б. 6.

ma’no anglatuvchi lug‘aviy birlik»[1] sanaladi.

Har bir ijodkor jonli va obrazli ifoda yaratish maqsadida milliy ruhiyatni, o‘zbekona lutfni chiroyli yetkazib bera oladigan qulay vositalardan biri bo‘lgan iboralarning yangi-yangi ma’no qirralarini ochishga intiladi. Sh.Orif ijodining leksik imkoniyatlarini o‘rganganda, xalq tili elementlari, xususan, maqol, matal va iboralar, umuman, turg‘un birikmalarning salmoqli o‘rni e’tiboringizni tortadi. Shoir xalqimiz asrlar davomida foydalanib kelgan lisoniy birliklar – barqaror birikmalardan zamonaviy she’riyatda ustalik bilan foydalanadi.

Shunchaki turibdi qo‘lda may,
O‘lib borar millionta his.
Qani, chalmaysizmi nog‘ora,
Bir o‘ynab beraman, *ko‘rasiz...* (Sh.Orif. B.5)

Mazkur baytda shoir xalqimiz leksik xazinasiga xos *«nog‘orasiga o‘ynamoq»* birikmasini mahorat bilan jonlantiradi, bu orqali lirik qahramonning ichki tug‘yoni, afsuslari, hayot o‘yinlariga munosabati ta’sirchanlik bilan aks ettiriladi.

O‘qrayar qarovsiz favvora,
Ensasi qotadi *qarg‘ani.*
Kiprikdek to‘kilar *yaproqlar,*
Farrosh supuradi qarg‘anib... (Sh.Orif. B.33)

Iboralar leksemaga teng bo‘lgan tushuncha, harakat, holat, belgini ifodalasa-da, uslubiy bo‘yoqdorligi, obrazliligi bilan oddiy so‘zlardan keskin farq qiladi. Aynan, mana shu jihatdan publitsistik va badiiy uslubda ifoda ta’sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida keng qo‘llanadi.

Keltirilgan baytda *«ensasi qotmoq», «kiprikdek to‘kilmoq»* iboralarining yangitdan jonlanganini ko‘rish mumkin. Shoir tabiat va inson o‘rtasida uyg‘un munosabatlar tasvirini chizar ekan, tabiatning inson bilan bog‘liq har bir chizgisiga badiiy vazifa yuklaydi va bunda iboralardan unumli foydalanadi. Shoir tomonidan qo‘llanilgan hikmatli so‘z, maqol va matallar hamda barqaror birikmalar ijodkor uslubining betakrorligi, uning o‘ziga xos poetik mahoratidan darak beradi. Ular shoir she’riyati ta’sirchanligini oshiradi, kitobxonda qiziqish uyg‘otadi, ba’zi bir iboralar o‘quvchini o‘ylashga, mushohada qilishga undaydi, o‘tmish va kelajak haqida to‘g‘ri xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Zardobdek chakkillab tomadi umrim,
Har bir qatrasida – hurram tikanlar.
Shotutdek to‘kilib borar *– bag‘ri qon,*
Meni ishorasiz anglaydiganlar. (Sh.Orif. –B.13)

Ushbu misralarda *«tutday to‘kilmoq»* iborasi biroz o‘zgartirilgan holda, *«shotutdek to‘kilmoq»* variantida qo‘llanilmoqda. *«Tutday to‘kilmoq»* iborasi O‘zbek tilining Izohli lug‘atida 1) birin-ketin qulamoq; 2) qirilmoq, qirilib ketmoq, mahv bo‘lmoq; 3) puturdan ketib, yemirilmoq, vayron bo‘lmoq; 4) eskirib, to‘zib yirtilmoq, yirtilib (sitilib) ketmoq, yirtilib tushmoq (kiyim haqida) ma’nolarini bildiradi[2]. Shoir o‘zining chinakam yaqin insonlarining ko‘ngli vayron bo‘lib borayotganini to‘laqonli ifoda etadi.

O‘zbek tilida *«qovog‘i uchdi»* frazeologik birikmasi ham borki, shoir undan o‘z hayotiy falsafasini badiiy nutqda aks ettirishda foydalanadi. U bir she’rini

Umrimning qaysidir pillapoyasi
Uzilib tushdimi, ***uchdi qabog‘im,***

- deya, o‘z umrining sinovlaridan shubhada turgan ko‘yini ifoda etib, boshlaydi, go‘yo «nimadir bo‘ldimikan» degan o‘yga toladi va she’r nihoyasida

Devorga suyanib o‘tarman endi,
Dunyoga suyanish – bulutdek mubham.
Yerdek tebranaman ***qobog‘im uchsa****,*
Yerdek og‘irlashib boryapti shubham...
(Sh.Orif. – B.13)

misralari orqali borgan sari qovog‘ining uchishidan battar gumon va shubhalarga to‘lib borayotgani, bunda Yerdek tebranib, titroqqa tushayotganini ta’sirchanlik bilan bayon etadi. Bunda shoir *«qovog‘i uchmoq»* iborasining semantik imkoniyatidan o‘rinli foydalana olganini ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, ijodkorlar odam va olam ruhiyatini ko‘rsatish, hayot voqealarini haqqoniy tasvirlash maqsadida original tashbehlar, timsollar yaratishga harakat qilar ekanlar, jonli til boyliklaridan hamda adabiy til meyorlaridan o‘rinli foydalanadilar. Ya’ni, ham jonli tilning, ham adabiy tilning o‘sishi va boyib borishi jarayonida jamiyatda nutq madaniyati shakllanishiga muayyan darajada o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shadilar. Sh.Orif ijodining frazeologizmlar bilan boyitilgan ifodalari ana shunday xususiyatga ega, deb ayta olamiz.

Sizdan bir ishora kifoya,
Tog‘lar ***yelka tutib*** *tizilar.* (Sh.Orif. B.12)

misrasida ham *«yelka tutmoq»* iborasi o‘rinli qo‘llanilgan. Shoir tomonidan yorning bir ishorasi bilan tog‘lar ham yelka tutib, ya’ni qo‘l ushlashib, birdam bo‘lib, yordamga shaylanib turishi, ma’shuqning murodiga yetishi uchun ko‘mak berishi mahorat bilan ifodalanadi. Natijada she’riy nutqning obrazliligi va ta’sirchanligi oshadi.

[1] Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 3.

[2] Ўзбек тилининг Изоҳли луғати. –Тошкент, 2006-2008. – Б.206

Ko‘kka sovurildi *yana bir imkon...*
Sokin talvasada titraydi olam.
Yig‘ilar oralab xirgoyi qilib,
Xalloslab bozorga ketmoqda odam...
(Sh.Orif. –B.16)

misrasida ham shoir bir imkon qo‘ldan boy berildi, yo‘q bo‘ldi, degan mazmunni ifodalashga xizmat qiluvchi «ko‘kka sovurilmoq» iborasini chiroyli tarzda qo‘llaydi va bu orqali badiiy nutqning poetik mukammalligi ta’minlanadi, badiiy ifodaning ta’sirchanligi ortadi.

Xulosa qilib aytganda, Sh.Orif ijodida *ko‘ngli qolmoq, ko‘z uzmoq, ushoqdek sochilmoq, yoqa yirtmoq* singari kabi o‘nlab iboralarni turli variantlarda va turli ma’no tovlanishlarida qo‘llaganilganki, bu shoirning nuktadonligi, so‘z va iboralarning semantik imkoniyatlarini zargarona qo‘llay olishidan dalolat beradi.

Ijodkor jonli va obrazli ifoda yaratish maqsadida milliy ruhiyatni, o‘zbekona lutfni chiroyli yetkazib bera oladigan qulay vositalardan biri bo‘lgan iboralarning yangi-yangi ma’no qirralarini ochib bergan.

Rezyume. Maqolada badiiy matnda pretsedent birliklar va turg‘un birikmalarning o‘rni haqida so‘z yuritilgan. Unda Shuhrat Orif ijodida faol qo‘llanilgan pretsedent birliklar va iboralarning leksik-semantik, lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan.

Resume. The article talks about the role of precedent units and fixed conjunctions in the literary text. It reveals the lexical-semantic, linguopoetic features of precedent units and expressions actively used in Shuhrat Arif’s work.

Резюме. В статье говорится о роли прецедентных единиц и устойчивых союзов в художественном тексте. Выявляются лексико-семантические, лингвопоэтические особенности прецедентных единиц и выражений, активно используемых в творчестве Шухрата Арифа.